



OILA MUHITINING BOLA SHAXSINING IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIRI.

Norqulova O'g'iloy Yo'ldosh qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi 1.24- guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oilaning bola shaxsining shakllanishi va ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, oila muhitining psixologik, ma'naviy va madaniy omillar bolaning ijtimoiy tajriba orttirishga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Tadqiqotda pedagogik va psixologik manbalar asosida tahliliy yondashuv qo'llaniladi.*

Kalit so'zlar: *oila, ijtimoiylashuv, bola shaxsi, tarbiya, manaviy muhit, kommunikatsiya,*

Annotation: *The article analyzes the role and importance of the family in the formation and socialization of a child's personality. It also highlights how the psychological, moral, and cultural factors of the family environment influence the child's acquisition of social experience. The study employs an analytical approach based on pedagogical and psychological sources.*

Keywords: *family, socialization, child's, personality, upbringing, moral environment, communication.*

Oila – jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy tizimdir. Bola hayotining dastlabki bosqichlaridan boshlab aynan oilada ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradi, axloqiy me'yorlarni o'rganadi va shaxs sifatida shakllanadi. Oila muhitining sifati, undagi psixologik iqlim va o'zaro munosabatlar bola shaxsining ijtimoiylashuv, jarayonini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ijtimoiylashuv – bu shaxsning jamiyatdagi me'yor, qadriyat va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayonidir. Bola ijtimoiylashuvining asosiy subyektlari – oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalaridir. Shulardan eng birinchisi va eng kuchlisi – bu oiladir.

Oiladagi emotsional muhit bolaning psixik rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mehr, ishonch, e'tibor va iliq munosabat mavjud bo'lgan oilada o'sgan bola odatda o'ziga ishonchli, ijobiy fikrlovchi va ijtimoiy faol bo'ladi. Aksincha, ziddiyatli, sovuq yoki zo'ravonlik hukm surgan muhitda voyaga yetayotgan bolalarda o'zini past baholash, agressiya yoki ijtimoiy chekinish holatlari kuzatiladi. Bolan uchun ota-ona – birinchi ijtimoiy modeldir. Ularning xatti- harakati, muloqot madaniyati, mehnatsevarligi va munosabatlari bolaga bevosita singib boradi. Shu sababli ota-onaning shaxsiy na'munalari tarbiyada eng samarali vosita hisoblanadi. Psixologlarning fikricha, bola 5 yoshgacha bo'lgan davrda asosiy axloqiy va ijtimoiy yo'nalishlarini shakllantirib oladi, bu jarayonning markazida esa ota-onaning o'zaro munosabati turadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Har bir oila o'ziga xos madaniy qadriyatlar tizimiga ega milliy an'ana, urf-odat, diniy qarashlar va ijtimoiy me'yorlar orqali bola jamiyatga moslashishni o'rganadi. Oiladagi o'qish, mehnat va muloqot madaniyati bolaning ijtimoiy faolligini mas'uliyatini va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Axborot texnologiyalarining keng tarqalishi, ota-onalarning bandligi, ajrimlar sonining ortishi kabi omillar zamonaviy oilaning tarbiyaviy funksiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, bolalar ijtimoiy tajriba va hissiy qo'llab-quvvatlash manbalaridan mahrum bo'lishi mumkin shu bois ta'lim muassasalari va jamiyatning boshqa institutlari oilani tarbiya jarayonida faol qo'llab-quvvatlashi zarur.

Oila muhitining asosiy ta'sir yo'nalishlari axloqiy tarbiya

Bola ota – onasining xulq-atvoriga qarab yaxshi – yomonni farqlashni o'rganadi.

Ota – onaning o'zaro munosabatlari, mehr – muhabbat darajasi, bolaga bo'lgan munosabati uning kelajakdagi axloqiy pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Muloqot madaniyati Bola dastlabki nutq, muloqot va xulq madaniyatini oila a'zolari bilan muloqotda o'zlashtiradi.

Ota – onaning til boyligi, muloqot uslubi va muamola madaniyati bola nutqining shakllanishiga asos bo'ladi.

Emotsional muhit. Oilada iliq muhit, o'zaro hurmat, qo'llab – quvvatlash bolada ishonch, ijobiy o'zini baholash tuyg'usini shakllantiradi.

Sovuq, befarq yoki zo'ravonlikka asoslangan muhit esa bola psixikasida salbiy iz qoldiradi. Ota – onaning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga o'rnak bo'ladi. Uy yumushlarida bolani ishtirok ettirish unda javobgarlik, tartiblilik, mustaqillik sifatlarini rivojlantiradi.

Har bir millatning tarbiyada o'ziga xos qadriyatlar mavjud. O'zbek oilasida bola tarbiyasi ko'p hollarda katta – kichikka hurmat, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik va halollik vatanparvarlik qadriyatlariga tayanadi. Bu qadriyatlar orqali bola o'z milliy o'zligiga ega bo'ladi, jamiyatning faol a'zosi sifatida kamol topadi.

Salbiy oilaviy omillar va ularning oqibatlarini: oilaviy nizolar, ajralishlar, ota-onaning befarqligi yoki haddan ortiq qattiqqo'lligi, spirtli ichimliklar, zo'ravonlik, beodob so'zlash, moddiy yetishmovchilik tufayli psixologik stress. Bunday muhitda ulg'aygan bolalarda – o'ziga ishonchsizlik, ijtimoiy izolyatsiya, agressevlilik, o'zini past baholash, ruhiy tramvalar kuzatiladi.

Oila – bu jamiyatning eng muhim bo'g'ini, bola shaxsining birlamchi ijtimoiylashuv maktabidir. Oila muhitida iliqlik, mehr – muhabbat, axloqiy qadriyatlar, ota – onaning shaxsiy na'munasi bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishi da asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Oila bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida poydevor vazifasini bajaradi. Mehrga, hurmatga, o'zaro ishonch va ma'suliyatga asoslangan oila muhiti bolani jamiyatga moslashgan, axloqan barkamol va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantiradi. Shu bois, oilaviy tarbiya masalalariga davlat, jamiyat va ta'lim tizimi darajasida alohida e'tibor qaratilishi zarur.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat,2008.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya razivitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 1996.
3. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
4. Musurmonova O. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

